

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.Toirov	
Texnosivilizatsiya jarayonining ijtimoiy-falsafiy talqini	109
B.Mirzaraximov	
Turizmning axloqiy-estetik mohiyatini tadqiq etishga oid metodologik yondashuvlar	117
M.T.Voxidova	
Xondamir asarlarida axloq va adolat g'oyalarining falsafiy talqini	123
D.E.Normatova	
IX-XII asrlarda o 'rta osiyoda ilmiy-axloqiy tafakkur rivoji	127
B.X.Tolipov	
Innovatsion iqtisodiy raqobat muhitining yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	131
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy falsafiy mazmuni	135
X.X.Yuldashxodjayev	
Musoxon Dahbidiy merosida davlat boshqaruvi va ma'naviy etakchilik hamda ijtimoiy mas'uliyatning zamonaviy talqini	140
G.I.Hashimova	
Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy, siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida	144
K.Shadmanov	
Literary and rhetorical traditions of latin and greek languages on the formation of english philosophical literature	149
A.A.Mo'ydinov	
Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini	153
A.A.Sayitxonov	
Tadbirkorlik faoliyatida innovatsion usullarning zaruriyati	159
G.M.Bozorova	
Muhammad Sharif Jurjoniyl ilmiy merosi va uning inson tafakkuri rivojida falsafiy ahamiyati	163
D.A.Sobirov	
Inson va mehnat: falsafiy tafakkur tarixida izlanish.....	168
Z.I.Narziev	
Aziziddin Nasafiyning tasavvuf ontologiyasi va ontologik konsepsiyalarga munosabati.....	177
X.M.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	183
S.Q.Qaxxorova	
Zamonaviy yoshlar ma'naviyati, axloqiy qadriyatlar va ruhiy barkamollikka yo'l.....	188
J.J.Shodiyev	
Inson ruhiy barkamolligi va jamiyat barqarorligini falsafiy yondashuv orqali rivojlantirish.....	192
N.U.Nurmatova	
Abdulkholiq G'ljduvoniylning "Maqomoti Yusuf Hamadoniyl" asari tahlili.....	196
A.A.Azimov	
Rudakiyl falsafiy qarashlarida ijtimoiyl adolat va inson tarbiyasi.....	200
S.H.Pulatov	
Abu Homid al-G'azzoliyl va Ibn al-Arabiyl ilmiy merosining keyingi davrlarda tadqiqi va bugungi kundagi ahamiyati	206
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiyl ta'limotida borliql nazariyasi.	211
F.A.Qalandarova	
Ijtimoiyl tabaqalanish evolyutsiyasi va uning zamonaviyl jamiyatdagi yangi ko'rinishlari	217
S.R.Kutlimuratov	
Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi	222
R.Sh.Bozorova	
Yangi O'zbekistonda ayollar intellektual va ma'naviyl salohiyatini shakllantirishda ijtimoiyl-falsafiy omillar, qadriyatlar va gender adolatning ahamiyati.....	226
Z.A.Ergasheva	
Yangi O'zbekistonda huquqiy ta'lim va axloqiy tarbiyani uyg'unlashtirish zarurati.....	230
Sh.F.Polvonov	



UO'K: 1:17(575.1):930.85

РАЗВИТИЕ НАУЧНО-ПРАВСТВЕННОЙ МЫСЛИ В СРЕДНЕЙ АЗИИ В IX-XII ВЕКАХ

THE DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC AND ETHICAL THOUGHT IN CENTRAL ASIA DURING THE IX -XII CENTURIES

Normatova Dildor Esonaliyevna 

Farg'ona davlat universiteti Falsafa va milliy g'oya kafedrası dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya

Maqolada IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda ilmiy-axloqiy tafakkur va uning rivoji, mintaqada ro'y bergan ijtimoiy, madaniy o'zgarishlar tahlil qilingan. Yaqin va O'rta Sharq xalqlari ma'naviy, axloqiy madaniyatning rivojlanishiga bebaho xissa qo'shgan mutafakkir ijodi yo'rtilgan.

Аннотация

В статье анализируются научно-нравственные воззрения и их развитие в Средней Азии в IX–XII веках, а также социальные и культурные изменения, происходившие в регионе. Освещено творческое наследие мыслителей, внесших бесценный вклад в развитие духовной и моральной культуры народов Ближнего и Среднего Востока.

Abstract

The article analyzes the scientific and ethical thought and its development in Central Asia during the 9th–12th centuries, as well as the social and cultural changes that occurred in the region. It highlights the works of thinkers who made an invaluable contribution to the development of spiritual and moral culture among the peoples of the Near and Middle East.

Kalit so'zlar: inson, madaniy hayot, komil inson, axloq, madaniy meros, axloqiy ta'limot, qadriyat.

Ключевые слова: человек, культурная жизнь, нравственность, культурное наследие, нравственное учение, ценность.

Key words: human being, cultural life, perfect person, morality, cultural heritage, moral education, values.

KIRISH

Uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida O'rta Osiyoning buyuk allomalari, olim-u fuzalolari va shoirlarini axloq muammolari qiziqtirib kelgan. Shu sababli O'rta Osiyoning ijtimoiy-falsafiy va ilmiy-axloqiy qarashlari tarixida axloq va ta'lim-tarbiya sohasiga loqaydlik bilan qaragan biron-bir mutafakkirni topish mushkul. Har bir mutafakkir u xoh tabiatshunos, musiqashunos, faylasuf, yozuvchi, shoir, ijodkor bo'lishidan qat'iy nazar, axloq masalalariga o'z munosabatini bildirish bilan birga, axloqning u yoki bu sohasi bo'yicha o'z fikrlarini bildirganlar. Bu axloqiy fikrlarning tarixiy ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi.

O'rta Osiyoda ilmiy-axloqiy, madaniy meros va falsafiy tafakkur tarixini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, avvalo uning muhim bosqichlarini tarixiylik prinsipini, tarixiy yondoshish asosida davrlashtirishni taqozo etadi. Bu vazifa bevosita Markaziy Osiyo mutafakkirlari axloqiy qarashlarining tarixiy bosqichlarini va uning muxim xususiyatlarini tadqiq etish bilan ham bevosita bog'liq.

IX-XII asrlar O'rta Osiyo mintaqasi ijtimoiy hayotida juda katta ijtimoiy o'zgarishlar ro'y berdi. Madaniy hayotda ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Madaniyat va uning o'ziga xos tomonlari shakllandi. Bu davrga kelib, birinchidan, dunyoviy va diniy ma'rifatga intilish, bu yo'lda o'tmish va qo'shni mamlakatlarning madaniyati yutuqlaridan keng foydalanish, ikkinchidan, tabiatga qiziqish, aql kuchiga ishonish, haqiqatni inson ilmining asosi deb hisoblash, uchinchidan, tabiatning ulug' ne'mati – insonni ulug'lash uning aqliy, tabiiy, badiiy, ma'naviy fazilatlarini asoslash, insonparvarlik, yuqori axloqiy qonun va qoidalarni namoyon etish, komil insonni tarbiyalashni maqsad qilib qo'yish bu davr madaniyatining muhim tomonlari edi.

IX-XII asrlar Yaqin va O'rta Sharqda arab xalifaligi hukmronligi bo'lib, bu davrda ilg'or mutafakkirlarning antik dunyo falsafasiga, ayniqsa aristotelizmga qiziqishi katta bo'lgan. IX-XII

asrlarda o'sha davr muhim bo'lgan fan, falsafa va maorifni gullab-yashnashi yuz bergani bizga ma'lum.

Markaziy Osiyolik mutafakkirlar Muso al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Firdavsiy, so'fizmning Abduxoliq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Motrudiy kabi mutasavvif va ilohiyotchilari IX-XI asrlarda Bog'dod, Damashq, Isfahon, Nishopur, Samarqandda ilm-fanni, madaniyatni, maorifni shuningdek, islom ilohiyotini rivojlantirdilar. Ayni shu hol ma'naviy-axloqiy jihatdan ham ulug' ajdodlarimiz yuksak martabaga ega bo'lganligini va axloqiy merosimizning eng katta bosqichi ekanligini bildiradi.

Italiyada XIY-XVI asrlarda yuz bergan Uyg'onish davrini tadqiq etgan taniqli olim I.N. Golenishev-Kutuzov shunday deb yozadi, Yaqin Sharq X-XII asrlarda G'arbiy Yevropaga nafaqat Aristotel, Ptolemey, Galen asarlariga sharxlarni, grek-arab tillaridagi asarlarni berdi, balki Bag'dod va Kordovada XII-XIII asrlarda O'rta Osiyodan chiqqan matematik va mutafakkirlar ajoyib ilmiy maktabni ham yaratdiki, ularning ilm-fan va madaniyatda ko'rsatgan ta'siri XIY-asrlarda G'arbiy Yevropada Uyg'onish davrini boshlanishiga sabab bo'ldi[1]. Xullas, IX-XII asrlarda O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqda yuz bergan madaniy, ilmiy, ma'rifiy uyg'onish axloqiy merosimizning eng buyuk bosqichi va oltin fondini tashkil qiladi.

Bu davr madaniyati umuminsoniy fazilatlar rivoji uchun xizmat qildi. Umuminsoniy fazilatlar uchun xizmat qilgan madaniyat vorislik xususiyatiga ega. Vorislik xususiyatiga ega bo'lgan madaniyatning tarkibiy qismi axloqdir. Bundan ko'rinadiki, axloq va axloqiy merosning mazmuni va mohiyati xaqida fikr yuritilganda uning vorislik belgilariga ahamiyat berish taqozo qilinadi. Ana shundan kelib chiqib, o'rta asr Markaziy Osiyo mutafakkirlari axloqiy merosiga, axloqning mazmuni, mohiyati haqidagi ta'limotlariga e'tibor qaratish muhimdir, chunki bu davr Markaziy Osiyo mutafakkirlari keng qamrovli qomusiy bilimga ega bo'lganlar. Ular tabiatshunos, musiqashunos, matematik, astronom, geograf, yozuvchi, shoir, adabiyotshunos va faylasuf sifatida o'z asarlarida axloq masalalariga ham alohida e'tibor qaratib, davr talablariga javob beradigan ilg'or axloqiy g'oyalarni ilgari surganlar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Respublikamiz faylasuf olimlari Mo'minov I.M, Zohidov V.Y, Xayrullayev M.M, Aliqulov X, Shayxova X, A.Sharipovlar Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviy merosidagi axloqiy ta'limotlar, ulardagi insonparvarlik, adolatparvarlik, xalqaro do'stlik g'oyalarining umumbashariy ahamiyati haqidagi tadqiqotlarni amalga oshirdilar. Mustaqillik yillarida respublikamiz faylasuflari, xususan E.Yusupov, Y.Jumaboyev, N.Komilov, X.Shayxova, Q.Nazarov, B.Ochilovalar[2] tomonidan tadqiq qilinayotgan mavzuning ayrim masalalarini milliy g'oya va mustaqillik mafkurasi tamoyillari asosida yoritilgan qator tadqiqotlar amalga oshirildi. M.Jakbarov, Z.To'laganov, Sh.Bobojonova[3]lar tomonidan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari yoqlandi. Mavzuning ba'zi masalalari bir necha xorijiy tadqiqotchilar, chunonchi, L.M. Lopatin, R.V.Petropavlovskiy, I.T. Frolov, Savanter Fernando, Xabermas Yurgen, K.Popper, F.A. Xayyek[4] tomonidan ham u yoki bu darajada yoritilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Markaziy Osiyolik mutafakkirlar, birinchidan, qadimgi Yunoniston, Hindiston, Misr, Eron va arab mamlakatlari madaniy merosiga, axloqiga hurmat bilan qaraganlar, ularni ijodiy rivojlantirdilar. Ikkinchidan, o'zlari ham original asarlar yaratib, ilg'or axloqiy ta'limotlarga asos solganlar. Bu ta'limotlar mazmunida inson shaxsi, uning eng yaxshi xislatlari yuksakliklarga ko'tarildi, ilm-fan qadrlandi, umuminsoniy va insonparvarlikka asoslangan qadriyatlar madh etildi. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, o'rta asr Markaziy Osiyo mutafakkirlari - Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalarning axloq haqidagi falsafiy qarashlari va ta'limotlari shaxs ma'naviy-axloqiy rivojida alohida ahamiyat kasb etadi.

Yaqin va O'rta Sharq xalqlari ma'naviy, axloqiy madaniyatning rivojlanishiga bebaho xissa qo'shgan Abu Nasr Forobiy (872-950) ning axloq haqidagi qarashlari "Aql to'g'risida", "Fozil odamlar shahri", "Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida", "Buyuk kishilarning naqlaridan" kabi qator asarlarida aks ettirilgan bo'lib, u axloq-odob muammolarini ratsionalistik tarzda talqin etishga harakat qildi. Axloqning mohiyati va mazmunini ifodalashda insonning ijtimoiy tabiati to'g'risidagi tushunchadan kelib chiqdi. Abu Nasr Forobiy inson shaxsini g'oyat ulug'ladi. Insonning qadr-qimmatiga, uning aql-zakovatining ijodiy va bunyodkorlik kuchiga yuksak baho berdi. Inson Abu Nasr Forobiy uchun shunchaki biologik mavjudot emas, u o'z mohiyatiga ko'ra, aql-idroki tufayli

FALSAFA

hayvonot dunyosi chegaralaridan tashqariga chiqdiki, uning bu aql-idroki mehnati bilan bir qatorda uni ijtimoiy jihatdan faol ijodkor qilib qo'yadi[5].

Abu Nasr Forobiy yunon mutafakkiri Epikur kabi axloqshunoslikning asosiy vazifasi baxt-saodatga erishuvga olib boruvchi yo'llarni aniqlashdan iborat deb xisobladi. Uning fikricha, barcha axloqiy meyorlar va qoidalar, yaxshi yoki yomon, ijobiy yoki salbiy axloqiy xatti-harakatlar bilan baholanadi, deb tushuntirdi. Abu Nasr Forobiy axloq masalalarini tushunishda ratsionalizm pozitsiyasida turadi. Olim mutafakkirlarning axloqiy qarashlarining mazmuni va mohiyati zaminida kishilarning xulq-atvor qoidalarini o'rganish, baxt-saodatga erishuv yo'llarini ko'rsatib berish yotadi, deb bildi. Mutafakkir axloqiy me'yorlar, axloqiy tushunchalar o'zgaruvchan xarakterga ega bo'lib, u doimo rivojlanib turadi, degan xulosaga keladi.

Shaxs va uning axloqi masalasi butun o'rta asr musulmon Sharqi mutafakkirlari diqqatini o'ziga tortib kelgan. Ana shunday buyuk siymolardan biri tabobat ilmining otasi Ibn Sino (980-1037) bo'lib, u o'zining "Tadbir-e manzil", "Axloq ilmiga doir risola", "Burch to'g'risida risola", "Axloq", "Solomon va lbsol", "Nafsni pokiza tutish to'g'risida risola", "Adolat haqida kitob", "Donishnoma" kabi qator asarlarida axloq masalalariga doir qarashlarini ilmiy-falsafiy asoslab berdi. Alloma bu tushunchalarni berishdan oldin falsafani ikki turga- nazariy va amaliyga bo'lib, amaliyni yana uch turga bo'ladi, ya'ni: mamlakatni idora qilish, uy-oilani idora qilish, nihoyat shaxsning o'zini idora qilish, deb tushunadi va axloqni amaliy falsafaga kiritadi.

Buyuk mutafakkir inson xatti-harakatlarining sababini, uning ijobiy yoki salbiy axloqiy xislatlarini odamning o'zida deb tushundi. Odamga xos bo'lgan axloq yordami bilan inson o'z xatti-harakatini, yurish-turishini, baxtli va farovon yashash yo'llarini o'rganadi, deb bildi.

Ibn Sino ham Abu Nasr Forobiy kabi insonni ijtimoiy mavjudot deb tushundi. Chunki inson kundalik amaliy faoliyatida boshqalar bilan aloqa qilmasdan, jamiyatga aralashmasdan hayot qura olmaydi. Shuning uchun inson hayvonga nisbatan juda ko'p afzalliklarga, ya'ni iffat, shijoat, adolat, saxiylik, qanoat, qat'iyat, sadoqat, hayo, kamtarlik kabi xislatlarga egadir, deyish bilan birga uning aksi – o'g'rilik, aldanchilik, nafrat, adovat, bo'xton, nodonlik kabi illatlar ham insonga xos bo'lib, ular ham inson axloqida namoyon bo'ladi, deb tushuntirdi. Ibn Sino o'z asarlarida axloq va uning tushunchalari nisbiy ekanligini e'tirof etar ekan, yaxshilik - yomonlikka va yomonlik - yaxshilikka aylanishi mumkinligini aytadi. Masalan, afyun dorisining oz miqdorda qo'llanilishi inson sog'ligi uchun foydali, meyordan ko'proq qo'llanilsa, inson hayotiga xavf tug'dirishi mumkin, degan tushunchani ilgari surdi. Alloma insonning ijobiy fazilatlariga do'stlik, mo'tadillik, qat'iyatlilik, sadoqat, adolat, saxiylik, uyatchanlik, donolik, aqllilik, kamtarlik va boshqalarni kiritadi.

Ibn Sino axloq va uning mazmun hamda mohiyatini yuqorida qayd etilgan axloq kategoriyalarida mavjud deb bildi. Uning fikricha, har bir kishi majburiyat ostida emas o'z yaxshi niyati tufayli yaxshilik qiladi. Faqat yaxshi maqsadni ko'zlagan yaxshiliknigina u mukammal yaxshilik deb biladi.

Mutafakkirning fikriga ko'ra, yaxshilik axloqiy tushuncha, unga olib boradigan yo'l faqat insonning kamoloti orqali bo'ladi. U "Umum tan olgan fikrga binoan yaxshilik qilish niyati qadr-qimmat va kamolot belgisidir"[6], -deb tushundi va kamolotga intilish inson zotiga xosdir, deydi.

Ibn Sinoning axloqiy ta'limoti negizida insonning axloqiy kamolotini o'zini o'zi takomillashtirishga bo'lgan intilishi yotadi, uning axloqiy xatti-harakatini amaliy aql belgilaydi va baholaydi, degan tushuncha yotadi. Amaliy aql esa mutafakkir uchun kishilarning ezgu va odilona munosabatlarining asosi hisoblanadi. Shu bilan birga u axloqning mohiyati va mazmuni kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muayyan ijtimoiy tartibga solishdir, deb hisoblaydi. O'rta Osiyo mo'g'ullar bosqiniga qadar bo'lgan davrlarda yuqorida nomlari tilga olingan buyuk mutafakkirlar axloqshunos olimlardan tashqari fan, ma'rifat, madaniyat, adabiyot, san'at sohasida ijod qilgan allomalar ko'plab topiladi. Ular tomonidan yaratilgan tarixiy obidalar mo'g'ullar tomonidan yakson qilindi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jamiyat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri - uning ilmiy-axloqiy jihatdan etukligidir. Axloqiy etuklikning ko'rsatkichlari jamiyatning axloqiy birlikka erishganligida, odamlarning hayotiy faoliyatida axloqiy asoslarning o'sib borishida, ijtimoiy hayotning boshqa soxalari bilan o'zaro axloqiy munosabatlarning yangi yo'nalishlarining vujudga kelishida jamiyat hayotidagi voqea va xodisalarni axloqiy jihatdan baholashning o'rni va rolining ortib borishida, axloqiy bilimlar saviyasining yuksalishida va boshqalarda namoyon bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, insonning axloqiy qadriyatlarini faqat

alohida shaxslarning hayotiy faoliyati bilangina emas, balki jamiyat hayotining tub ildizlari bilan uzviy bog'liqlikdadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Из философского наследия народов Востока. – Ташкент.: Фан, 1972. С.133-135.
2. Ibn Sino. Fan va uning qonunlari to'g'risida oliy limning yangilanishi. //O'zbekistonda progressiv ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixiga doir materiallar. –Toshkent.: Fan, 1959. -10 b
3. Ибн Сина. Даниш-намэ. Душанбе.: Таджгосиздат, 1957. С. -217.
4. Жакбаров М. Проблемы социального идеала и современной личности в философской мысли Мавереннахра XIX-XX вв. Автореф. дис. на соиск. док. филос. наук. –Ташкент.: 2000;
5. Лопатин Л.М. Статьи по этике. СПб.: Наука. 2004.
6. М.М.Хайруллаев. Культурное наследие и история философской мысли. Ташкент.: Узбекистан, 1985. С-62.
7. Петропавловский Р.В. Диалектика прогресса и её проявление в нравственности. М.: Наука, 1978.
8. Попер К. Открытое общество и его враги. т.1. М.: 1999.
9. Хаек Ф.А. Пагубная самонадеянность. М.: Новости. 1992.